O‘QUVCHILARDA MUSTAQIL O‘QISH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Toshkent xalqaro Kimyo universiteti Samarqand filiali
MPRI 252-guruh 1-bosqich magistranti
Bagirova Muxabbat Baxriddinovna

Annotatsiya: *Mazkur maqolada o‘quvchilarda mustaqil o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirishning nazariy asoslari, metodik yondashuvlari hamda amaliy tajribalar tahlil qilinadi. Mustaqil o‘qish o‘quvchilarning tafakkurini rivojlantirish, ularni mustaqil fikrlashga, o‘z bilimini mustahkamlashga undaydigan muhim jarayon sifatida qaraladi. Maqolada mustaqil o‘qish jarayonida o‘qituvchining rahbarlik faoliyati, metodik vositalar va interfaol metodlarning roli yoritilgan. Tadqiqot natijalari asosida o‘quvchilarning mustaqil o‘qish madaniyatini rivojlantirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *mustaqil o‘qish, metodika, o‘quvchi faolligi, interfaol usullar, o‘z-o‘zini ta’lim, fikrlash, refleksiya.*

Аннотация: *В статье анализируются теоретические основы,методические подходы и практический опыт развития навыков самостоятельного чтения у учащихся. Самостоятельное чтение рассматривается как важный процесс, развивающий мышление учащихся, побуждающий их ксамостоятельному мышлению и закрепляющий их знания. В статье освещается роль руководства учителя, методических средств и интерактивных методов в процессе самостоятельного чтения. На основе результатов исследования формулируются предложения и рекомендации по формированию культуры самостоятельного чтения у учащихся.*

Ключевые слова: *самостоятельное чтение, методика, активность учащихся, интерактивные методы, самообразование, мышление, рефлексия.*

Annotation: *This article analyzes the theoretical foundations, methodological approaches and practical experiences of developing independent reading skills in students. Independent reading is considered an important process that develops students' thinking, encourages them to think independently, and strengthens theirknowledge. The article highlights the role of the teacher's leadership, methodological tools and interactive methods in the process of independent reading. Based on the results of the research, proposals and recommendations are made for developing a culture of independent reading in students.*

Keywords: *independent reading, methodology, student activity, interactive methods, self-education, thinking, reflection.*

KIRISH

Bugungi kunda ta’lim tizimining asosiy maqsadlaridan biri - o‘quvchilarni mustaqil fikrlaydigan, izlanishga qodir, tashabbuskor va bilim olishga ongli ravishda intiladigan shaxs sifatida tarbiyalashdir. Shu jihatdan o‘quvchilarda mustaqil o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish zamonaviy ta’limning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki mustaqil o‘qish faqatgina darslikdagi ma’lumotni yod olish emas, balki o‘quvchining o‘zi uchun yangi bilimlarni izlab topish, ularni tahlil qilish, xulosa chiqarish va amalda qo‘llash jarayonidir.

Mustaqil o‘qish o‘quvchini faol ishtirokchi, mustaqil fikrlovchi, ijodkor shaxsga aylantiradi. Mustaqil o‘qish ko‘nikmalari o‘quvchilarda o‘qishga bo‘lgan ichki motivatsiyani kuchaytiradi. Bu esa o‘z navbatida, ularning o‘zlashtirish darajasi, tafakkur salohiyati va ijtimoiy faoliyatida ijobiy o‘zgarishlarni yuzaga keltiradi. Ta’lim tizimida bu jarayonni yo‘lga qo‘yishda

o‘qituvchining roli beqiyosdir. O‘qituvchi o‘quvchiga nafaqat bilim beradi, balki uni bilim olish jarayoniga yo‘naltiradi, o‘z ustida ishlashga ilhomlantiradi[1].Shuning uchun pedagog o‘z faoliyatida o‘quvchilarni mustaqil o‘qishga o‘rgatuvchi turli metod va texnologiyalardan oqilona foydalanishi zarur.

Zamonaviy ta’limda o‘quvchilarning mustaqil o‘qish faoliyatini rivojlantirish uchun interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, masofaviy o‘qish tizimlari keng qo‘llanilmoqda. Ayniqsa, internet resurslari, elektron darsliklar va multimedia vositalari o‘quvchilarga bilim olish jarayonini qulay, erkin va qiziqarli tarzda tashkil etish imkonini bermoqda. Biroq bu jarayonni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish uchun o‘quvchilarda axborotni tanlash, tahlil qilish, ishonchliligini baholash va undan to‘g‘ri foydalanish malakasini shakllantirish talab etiladi. O‘quvchilarda mustaqil o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish jarayoni murakkab pedagogik va psixologik jarayon bo‘lib, unda o‘quvchi shaxsining kognitiv (bilish), affektiv (hissiy) va irodaviy (volitiv) jihatlari birgalikda rivojlanadi. Shu bois bu masalani samarali hal etish uchun ta’lim metodikasiga tizimli yondashuv zarur. Ta’limda mustaqil o‘qish nafaqat bilim olish vositasi, balki o‘zini anglash, mustaqil qaror qabul qilish va shaxsiy fikrni shakllantirish manbai sifatida qaraladi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlari, “Yangi O‘zbekiston –ma’rifatli jamiyat” tamoyillari ham aynan mustaqil o‘ylaydigan va o‘z bilimini mustaqil ravishda boyitib boradigan yoshlarni tarbiyalashga qaratilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim tizimini raqamlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlarida ham o‘quvchilarning o‘z ustida ishlash madaniyatini shakllantirish, o‘z-o‘zini o‘qitish

[1] Piaget J. The Psychology of the Child. Basic Books, 1969.

ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim vazifa sifatida belgilangan. Shu bois, ushbu maqolada o‘quvchilarda mustaqil o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirishning nazariy asoslari, amaliy usullari hamda samarali metodikalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda o‘qituvchi faoliyatida mustaqil o‘qishni yo‘lga qo‘yishning zamonaviy usullari, interfaol mashg‘ulotlarning afzalliklari va o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasiga ta’siri o‘rganiladi. Maqolada shuningdek, o‘quvchilarda mustaqil o‘qish jarayonida paydo bo‘ladigan psixologik to‘siqlar, motivatsion muammolar hamda ularni bartaraf etish yo‘llariga ham e’tibor qaratiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

O‘quvchilarda mustaqil o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish masalasi so‘nggi yillarda nafaqat mahalliy, balki xorijiy pedagogika fanida ham keng o‘rganilmoqda. Ushbu masala o‘quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirish, tafakkurini faollashtirish va o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasini kuchaytirish bilan bevosita bog‘liqdir.Mustaqil o‘qishning nazariy asoslarini birinchi bo‘lib psixologik yondashuv nuqtai nazaridan L. S. Vygotskiy o‘zining “Proksimal rivojlanish zonasi” konsepsiyasida izohlagan [1]. Unga ko‘ra, o‘quvchi o‘qituvchi rahbarligida emas, balki mustaqil faoliyat jarayonida o‘z bilish darajasini sezilarli oshiradi. D.Bruner [2] o‘z tadqiqotlarida “kashfiy etuvchi o‘qish” (discovery learning) g‘oyasini ilgari surgan bo‘lib, u o‘quvchilarning mustaqil izlanish orqali bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirishini ta’kidlaydi.Brunerning fikricha, mustaqil o‘qish jarayonida o‘quvchi o‘z tajribasi asosida yangi tushunchalarni hosil qiladi, bu esa ijodiy tafakkurni shakllantiradi.

O‘zbek olimlari orasida R. I. Mavlonova [3] mustaqil o‘qish jarayonining pedagogik asoslarini o‘rganib, o‘qituvchining yo‘naltiruvchi, lekin hukmron bo‘lmagan roli muhimligini ta’kidlagan. Unga ko‘ra, o‘qituvchi o‘quvchiga tayyor bilimni berish emas, balki uni topishga yo‘naltirish orqali mustaqil fikrlashni rag‘batlantiradi. Shuningdek, N. A. Muslimov [4] o‘z

ishlarida mustaqil o‘qishni shakllantirish uchun o‘quvchilarni motivatsion, amaliy va refleksiv bosqichlar asosida tayyorlash zarurligini qayd etadi. J. Piaget [5] esa o‘quvchilarning mustaqil bilim olish faoliyatini ularning kognitiv rivojlanish bosqichlari bilan bog‘liq holda tahlil qilgan. Unga ko‘ra, o‘quvchi faqat o‘z faol ishtiroki orqali bilimni “kashf etadi”, bu esa mustaqil o‘qish jarayonining tabiiy asosini tashkil etadi. Shuningdek, amerikalik olim B. Bloom [6] tomonidan ishlab chiqilgan “Bloom taksonomiyasi”da ham o‘quvchilarning mustaqil fikrlash darajasi bosqichma-bosqich o‘rganilgan. Unga binoan, o‘quvchining mustaqil o‘qish ko‘nikmalari bilish, tushunish, qo‘llash, tahlil, sintez va baholash bosqichlari orqali shakllanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘quvchilarda mustaqil o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish — zamonaviy ta’lim jarayonining eng muhim vazifalaridan biri bo‘lib, bu jarayon orqali o‘quvchi o‘z bilimini mustaqil ravishda boyitishga, ma’lumotni tahlil qilishga va undan foydali xulosa chiqarishga o‘rganadi. Mustaqil o‘qish o‘quvchi shaxsining faol subyekt sifatida shakllanishini ta’minlaydi, uni bilim oluvchi emas, balki bilim yaratuvchi bosqichiga olib chiqadi. Bunday ko‘nikmalarni shakllantirish uchun pedagogik yondashuvlar tizimli,bosqichma-bosqich va o‘quvchining individual imkoniyatlariga mos tarzda tashkil etilishi lozim.

Tadqiqot davomida o‘quvchilarda mustaqil o‘qish ko‘nikmalarining shakllanishiga ta’sir etuvchi asosiy omillar sifatida uchta yo‘nalish aniqlangan: birinchidan,o‘qituvchining metodik yondashuvi; ikkinchidan, o‘quvchining ichki motivatsiyasi; uchinchidan, ta’lim muhitining mosligi. Har bir omil o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, ulardan birining sustligi butun jarayon samaradorligiga ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, o‘qituvchi interfaol metodlardan foydalanmagan taqdirda, o‘quvchida qiziqish pasayadi; yoki aksincha, o‘quvchining motivatsiyasi past bo‘lsa, eng zamonaviy usul ham kutilgan

natijani bermaydi. Shu sababli mustaqil o‘qish jarayonini tashkil etishda kompleks yondashuv muhim ahamiyatga ega.

O‘quvchilarning mustaqil o‘qish jarayonini samarali tashkil etish uchun ularning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olish zarur. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida bu ko‘nikma ko‘proq o‘qituvchi rahbarligida shakllanadi. Ular uchun mustaqil o‘qish deganda matnni to‘g‘ri o‘qish, asosiy fikrni anglash, oddiy xulosalar chiqarish kabi elementar faoliyat tushuniladi. O‘rta sinf o‘quvchilari esa mustaqil o‘qish orqali ma’lumotlarni tahlil qilish, ularni solishtirish, farqlash, dalillarga asoslanish jarayonlarini o‘rganadilar. Yuqori sinflarda esa mustaqil o‘qish-ilmiy matn bilan ishlash, ma’lumot manbalarini tanlash, mavzu bo‘yicha fikr yuritish, dalillarni mustaqil to‘plash va tahlil qilish darajasiga ko‘tariladi[2]

O‘quvchilarda mustaqil o‘qish ko‘nikmasini shakllantirishda o‘qituvchi rahbarlik faoliyatining to‘g‘ri tashkil etilishi muhim. O‘qituvchi o‘quvchiga tayyor bilimni berishdan ko‘ra, uni topishga yo‘naltiruvchi yo‘lboshchi vazifasini bajaradi. Buning uchun dars jarayonida muammoli vaziyatlar yaratish, o‘quvchilarni mustaqil izlanishga undash, savol-javob va tahliliy mashg‘ulotlardan foydalanish lozim. Masalan, o‘quvchiga tayyor javobni aytish o‘rniga, “Seningcha, bu holatda qanday xulosa chiqarsa bo‘ladi?” kabi savollar orqali uni o‘ylashga undash mumkin. Bu usul o‘quvchining tafakkurini faollashtiradi va mustaqil fikrlashni kuchaytiradi.

O‘quvchilarning mustaqil o‘qish faoliyatini rivojlantirishda interfaol metodlar eng samarali vositalardan biridir. “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Insert”, “Venn diagrammasi” kabi usullar orqali o‘quvchilar o‘rganilgan mavzularni tahlil qiladi, ularni yangi bilimlar bilan bog‘laydi va o‘z fikrini asoslay oladi. Bu jarayonda o‘qituvchi o‘quvchilarga yo‘l-yo‘riq beradi, ammo xulosa

[2] Bloom B. S. Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals. New York: Longmans, Green and Co., 1956.

chiqarishularga topshiriladi. Shu tarzda o‘quvchi o‘z fikrining to‘g‘riligini dalillashga o‘rganadi, bu esa mustaqil o‘qishning eng muhim bosqichidir.

Tadqiqot doirasida bir nechta sinflarda kuzatuv o‘tkazilib, o‘quvchilarning mustaqil o‘qish darajasi aniqlanib, maxsus jadval tuzildi. Quyidagi jadvalda kuzatuv natijalari umumlashtirilgan.

1-jadval

Sinf darajasi	Mustaqil o‘qish faol bo‘lgan o‘quvchilar (%)	O‘rtacha faollikdagi o‘quvchilar (%)	Passiv o‘quvchilar (%)
2-sinflar	38	42	20
3-sinflar	54	34	12
4-sinflar	61	32	7

Jadvaldan ko‘rinadiki, o‘quvchilarning mustaqil o‘qishga bo‘lgan faol ishtiroki yosh ortishi bilan ortib boradi. Bu esa ularning tajriba, qiziqish va mas’uliyat darajasining oshishi bilan bog‘liq. Biroq, bu jarayon o‘z-o‘zidan sodir bo‘lmaydi. Yuqori sinflarda ham mustaqil o‘qish ko‘nikmasi yetarli darajada rivojlanmagan o‘quvchilar uchrab turadi. Buning sabablari orasida motivatsiyaning yetarli emasligi, o‘qish uchun qulay muhitning yo‘qligi, o‘qituvchi tomonidan doimiy yo‘naltirishning kamligi kabi omillar aniqlangan. Mustaqil o‘qishni rivojlantirishda motivatsiya yetakchi o‘rinni egallaydi. O‘quvchi o‘zining o‘qish faoliyati natijasida foyda, yangi bilim, muvaffaqiyat yoki tan olinishni his qilsa, bu uni yanada faolroq bo‘lishga undaydi. Shuning uchun o‘qituvchi o‘quvchining ichki rag‘batini uyg‘otuvchi usullarni qo‘llashi zarur. Bunga rag‘batlantirish, tan olinish, kichik yutuqlarni e’tirof etish, o‘quvchining shaxsiy qiziqishlariga mos mavzular tanlash kabilar kiradi. O‘quvchilarda mustaqil o‘qish jarayonida axborot manbalari bilan ishlash madaniyatini ham shakllantirish muhimdir. Bugungi raqamli asrda internet, elektron kutubxonalar va ochiq ta’lim platformalari o‘quvchilarga keng imkoniyatlar yaratmoqda. Ammo bu imkoniyatlardan to‘g‘ri foydalanish

uchun tanqidiy fikrlash, manbani tahlil qilish, ishonchlilikni tekshirish ko‘nikmalarini o‘rgatish zarur. Aks holda, o‘quvchi ishonchsiz ma’lumotlarga tayangan holda noto‘g‘ri xulosalar chiqarishi mumkin. Shu bois, o‘qituvchilar o‘quvchilarga “axborot gigiyenasi” tushunchasini ham o‘rgatishlari zarur.

Xulosa qilib aytganda o‘quvchilarda mustaqil o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish bugungi ta’lim tizimining eng dolzarb masalalaridan biridir. Zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchini faqat tayyor bilimlarni eslab qoluvchi emas, balki mustaqil izlanish olib boruvchi, tanqidiy fikrlovchi va ijodiy yondashuvchi shaxs sifatida tarbiyalash zarur. Shu maqsadda o‘qituvchilarning o‘qish jarayonini boshqarishdagi roli o‘zgarib, ular bilim manbai emas, balki yo‘naltiruvchi, maslahat beruvchi hamda motivatsiyani shakllantiruvchi shaxs sifatida faoliyat yuritmoqda. Mustaqil o‘qish ko‘nikmalarining rivoji o‘quvchilarda o‘z ustida ishlash madaniyatini shakllantirib, ularning keyingi ta’lim bosqichlarida ham muvaffaqiyatli o‘qishiga zamin yaratadi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarning mustaqil o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshirish uchun, eng avvalo, dars jarayonida interfaol usullar, loyihaviy yondashuvlar va zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish muhim. O‘quvchilar o‘rganayotgan matnni tahlil qilish, asosiy g‘oyani aniqlash, muammoli savollarga javob topish orqali nafaqat til ko‘nikmalarini, balki mantiqiy fikrlash va tahliliy yondashuvni ham rivojlantiradi. Bu esa ularning nafaqat darslik doirasida, balki kundalik hayotdagi turli vaziyatlarda ham o‘z fikrini mustaqil ifodalashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Vygotsky L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press, 1978.

2. Bruner J. The Process of Education. Harvard University Press, 1960.

3. Mavlonova R. I. Pedagogik texnologiyalar asoslari. Toshkent: Fan va texnologiya, 2016.

4. Muslimov N. A. O‘qituvchilarni kasbiy tayyorlashda innovatsion yondashuvlar. Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2020.

5. Piaget J. The Psychology of the Child. Basic Books, 1969.

6. Bloom B. S. Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals. New York: Longmans, Green and Co., 1956.

7. Xoliqova A. O‘quvchilarda mustaqil ta’lim ko‘nikmalarini shakllantirish yo‘llari. Toshkent: Innovatsion pedagogika jurnali, No2, 2021.